

ONA TILI

ABITURIYENTLAR UCHUN ENG QULAY QO'LLANMA.

[QILICHEV JAHONGIR]

FONETIKA

“Ilm – qaytarish va takrorlash mevasidir”

(Abu Rayhon Beruniy)

FONETIKA

KIRISH

Nutqimizni mayda bo‘laklarga ajratadigan bo‘lsak, bo‘linishning oxirgi nuqtasi tovushlar bo‘ladi. Masalan, O‘zbekiston — jannatmakon o‘lka jumlesi O‘zbekiston, jannatmakon, o‘lka so‘zlariga, bu so‘zlar, o‘z navbatida, O‘z-be-kis-ton, jan-nat-ma-kon, o‘l-ka bo‘g‘inlariga, bo‘g‘inlar esa o‘-z-b-e-k-i-s-t-o-n j-a-n-n-a-t-m-a-k-o-n o‘-l-k-a singari tovushlarga bo‘linadi.

Eslatma! Bo‘linishning oxirgi nuqtasi bo‘lgan, boshqa mayda bo‘laklarga bo‘linmaydigan nutq bo‘lagi (*akustik-artikulatsion birlik*) **tovush** hisoblanadi va u bilan bog‘liq hodisalar tilshunoslikning *fonetika* bo‘limida o‘rganiladi.

Eslatma! Fonetika so‘zi yunoncha phone – «**tovush**» so‘zidan olingan. Fonetikada tabiatdagi har qanday tovush emas, balki faqat nutq tovushlari o‘rganiladi.

Eslatma! So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida axborot uzatish va axborotni qabul qilish faoliyati ***nutqiy faoliyat*** sanaladi.

Eslatma! Tilning fonologik (fonetik) sathining birligi fonema bo‘lsa, fonemaning real talaffuz qilingan, qulq bilan eshitilgan ko‘rinishi fon (allofon) yoki tovush hisoblanadi.

TOVUSH VA FONEMA

Tilshunoslik fanida tovush va fonema tushunchalari bir-biridan farqlanadi.

Eslatma! Nutq jarayonida real talaffuz qilingan, qulog‘imiz bilan eshitgan eng kichik va boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan nutq parchasi **tovush** sanaladi.

Eslatma! Bevosita kuzatishda bir nechta tovushlar orqali talaffuz qilinuvchi so‘z va uning ma’noli birliklarini shakllantirish hamda farqlash vazifasini bajaradigan, ketma-ketlik jihatdan boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan eng kichik til birligi **fonemadir**.

Eslatma! Testda fonema so‘ralsa, ikki so‘zni bir-biridan farqlashga xizmat qiluvchi tovushni olasiz. Masalan, tosh-tom so‘zlarini **sh** va **m** farqlaydi. Demak, m va sh fonema.

Bir fonema bir necha tovushlar orqali ro‘yobga chiqadi. Fonemalar ikki va undan ortiq ma’noli birliklarni bir-biriga zidlash orqali aniqlanadi.

Eslatma! Fonema ma’no farqlovchi tovush hisoblanadi. Ma’no farqlovchi tovushlar paronim so‘zlardagi bitta-bitta tovush hisoblanadi. Bunday paytda qolgan bir xil tovushlarning joylashuv tartibi ham bir xil bo‘lishi kerak. Masalan: bir-pir, bayt-payt, bob-bop, dor-tor, dog’-tog’, Hasan-Husan, bilim-tilim.

Eslatma! Agar tovushlarning joylashuv tartibi har xil bo‘lsa, bunday so‘zlarda fonemalar farqlovchi tovush hisoblanmaydi. Masalan: ost-sot, ust –sut.

FONEMA VA HARF

Fonema nimaligini bilib oldik, endi uning harf bilan aloqasini o'rganib chiqamiz. Biz nutqimizni harflar ketma-ketligi asosida yozma bayon qilishimiz mumkin.

ESLATMA! *Fonema (ya'ni tovush)ning yozuvdagi ifodasi harf deyiladi.* Har bir harf o'sha tildagi fonemalarga qarab olinadi. Ba'zan bir fonemani ifodalash uchun bir harfdan ham, ba'zan ikki harfdan ham foydalanish mumkin. (Sh,ch,ng).

Eslatma! Harflarni xotirada yaxshi saqlash va lug'at tuzishda ma'lum izchillikka amal qilish maqsadida harflar muayyan tartibda joylashtirib chiqiladi. Muayyan tartibda joylashtirilgan harflar tizimi **alifbo** deyiladi.

UNLI VA UNDOSH TOVUSHLAR TASNIFI

Hozirgi o'zbek adabiy tilida tovushlar ikki guruhga bo'linadi: Unli tovushlar va undosh tovushlar. Unli va undosh tovushlarni farqlovchi uchta belgi bor:

1. To'siqqa uchrash, uchramaslik; (*unli to'siqqa uchramaydi, undosh uchraydi.*)
2. Bo'g'in hosil qilish yoki qilmasligi; (*unli hosil qiladi, undosh hosil qilmaydi*)
3. Shovqin belgining bor, yoki yo'qligiga ko'ra. (*unlida yo'q, undoshda bor*)

UNLILAR TASNIFI

Eslatma! Faqat un (ovoz)dan iborat bo'lgan, bo'g'in hosil qiladigan va to'siqqa uchramaydigan tovushlar **unli** tovushlar deyiladi. Hozirgi o'zbek tilida 6 ta unli tovush bor: i, e, u, o', a, o.

Unli tovushlar uch tomonlama tasnif qilinadi:

1. **Labning ishtirokiga ko'ra;**
2. **Og'izning ochilish darajasiga ko'ra**
3. **Tilning gorizontal holatiga ko'ra;**

1. Labning ishtirokiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

I) Lablangan unlilar: **u, o'**

II) Lablanmagan unli: **i, e, a**

Eslatma! O – oraliq unli hisoblanadi.

2. Og'izning ochilish darajasiga ko'ra uchga bo'linadi:

I) Yuqori tor unli: **i, u**

II) O'rta keng unli: **e, o'**

III) Quyi keng unli: **a, o**

3. Tilning gorizontal holatiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

I) Old qator unlilar: **i, e, a**

II) Orqa qator unlilar: **u, o', o**

Yuqoridagi 1- va 2- belgi hozirgi o'zbek adabiy tili unlilari tasnifi uchun asos bo'ladi. (*lab va og'iz*)

Unlilar tasnifi (*soddalashtirlgan*)

Og'izning ochilish darajasiga ko'ra (Tilning ko'tarilish darajasi)	Tilning gorizontal harakatiga ko'ra		Labning ishtirokiga ko'ra
	<i>Old qator</i>	<i>Orqa qator</i>	
(Yuqori) tor unli	Ii ←		Lablanmagan
O'rta keng unli	Ee ←	Uu ←	Lablangan
Quyi keng unli (keng unli)	Aa ←	O'o' ←	Lablangan
		Oo ←	Oraliq

Unli tovush bu – Faqat un(ovoz)dan iborat bo'lgan, bo'g'in hosil qiladigan va hech qanday to'siqqa uchramaydigan tovush unli tovush hisoblanadi.

Tovush=un=ovoz (bular bir xil tushuncha).

Eslatma! Unlilarni hosil qilishda ovoz paychalari, til va lablar asosiy vazifani bajaradi.

UNDOSHLAR TASNIFI

O'pkadan chiqayotgan havo ma'lum bir to'siqqa uchrashidan hosil bo'ladigan, shovqin ishtirok etadigan va bo'g'in hosil qilolmaydigan tovushga ***undosh tovush*** deyiladi.

Eslatma! Undosh tovushlar hosil bo'lishida bo'g'iz bo'shlig'i, og'iz bo'shlig'i va til muhim ahamiyatga ega. O'zbek tilida 23 ta undosh tovush mavjud. Bu undosh tovushlardan bitta **-ng** yozuvda maxsus belgi bilan berilmaydi. Uchta undosh tovush (**sh, ch, ng**) harfiy birikma hisoblanadi. Bularda tovushlar va harflar soni teng kelmasligi mumkin. (**sh** bir tovush, ikki harf(s,h)

ESLATMA! Undosh tovushlar uch tomondan tasnif qilinadi:

- I. **Hosil bo'lish o'rniga ko'ra;** (*til, lab, bo'g'iz*)
- II. **Hosil bo'lish usuliga ko'ra:**
- III. **Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra;** (*jarangli, jarangsiz*)

I. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra:

1. Lab undoshlari: b, p, m, v, f;

- a) lab-lab undoshlari: b, p, m;
- b) lab-tish undoshlari: f, v.

2. Til undoshlari:

- a) *til oldi* undoshlari: d, t, z, s, j, ch, sh, n, l, r;
- b) *til o'rta* undoshi: y;
- d) *til orqa* undoshlari: g, k, ng;
- e) *chuqur til orqa* undoshlari: q, g‘, x.

3. Bo'g'iz undoshi: h.

II. Hosil bo'lish usuliga ko'ra:

- a) portlovchilar: b, p, d, t, g, k, j, q, m, n, ng;
- b) sirg‘aluvchilar: v, f, z, s, y, r, l, sh, g‘, x, h;
- d) qorishiqlar: ch.

III. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra:

1. Jarangli undoshlar – bularda ovoz ham, shovqin ham ishtirok etadi, tovush paychalari tarang tortilgan bo'ladi.

b, v, g, d, z, j, y, g‘, l, m, n, ng, r.

2. Jarangsiz undoshlar – faqat shovqindan iborat bo'ladi, tovush paychalari tarang tortilmaydi **p, f, k, t, s, ch, sh, q, x, h.**

O'zbek tilida 8 ta undosh tovush jarangsiz juftiga ega. (*Quyidagi jadval yodlashga qulay*)

Jaranglilar	b	v	d	j	dj	z	g	g'	y	l	m	n	r	ng	-	-
jarangsizlar	p	f	t	ch	sh	s	k	q	-	-	-	-	-	x	h	

ESLATMA! Undoshlar tarkibiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Sof undosh – 22 ta;
2. Qorishiq – **ch**

ESLATMA! Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra *sonorlar va shovqinlilarga bo'linadi.*

Shovqinlilar- 18 ta

Sonorlar(ovozdorlar)- l, m, n, ng, r.

Shulardan **m**, **n**, **ng** – burun tovushlari; **l** –yon tovush; **r** – titroq tovush.

ESLATMA! Nutq tovushlarining asosiy vazifasi so'zlarning ma'nosini farqlashdir.

Undoshlarga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Masalan: **b** – hosil bo'lish o'rniga ko'ra lab undoshi; bo'lish usuliga ko'ra portlovchi; ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra jarangli, shovqinli; tarkibiga ko'ra sof undosh.

TOVUSHLARNING FARQLOVCHI VA BILASHTIRUVCHI BELGILARI

Biz fonetika va fonologiya bo'limlarini farqlashimiz lozim. **Fonetikada** nutq tovushlarining bir qancha *akustik-artikulatsion belgilari* o'rganiladi. Ya'ni, *nutq tovushlarining barcha tomonlari* o'rganiladi. **Fonologiyada** esa faqat bir tovushni ikkinchi tovushga taqqoslaganda, *ularni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilarga* o'rganiladi.

ESLATMA! Biz bilish faoliyatida zidlashga kata ahamiyat beramiz. *Bunda ikki predmetni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilar farqlovchi belgilar* deyiladi.

ESLATMA! *Har ikki predmetda takrorlanadigan va ularning har ikkisi uchun umumiy bo'lgan belgilar birlashtiruvchi belgilar* deyiladi.

Masalan: Hasan va Husan so'zlarining tovush tarkibi bir xil. Bulardagi ikkinchi tovushlar (a,u) so'zlarni farqlovchi belgilar hisoblanadi. Qolgan tovushlar esa so'zlarni birlashtiruvchi belgilar hisoblanadi.

ESLATMA! Nutq toyushlarini farqlashda ularning tasnifidan foydalanamiz.

Z va S

1) Farqlovchi belgi: **Z** – jarangli; **S** – jarangsiz.

2) Birlashtiruvchi belgi: Ikkalasi ham til oldi, sirg'aluvchi, sof undosh, shovqinli.

i va e

1) Farqlovchi belgi: **i** – yuqori tor unli; **e** – o'rta keng unli.

2) Birlashtiruvchi belgi: old qator, lablanmagan, ovozdan iborat.

M va G

- 1) Farqlashtiruvchi belgi: **M** – lab undoshi, sonor; **G** – til undoshi, shovqinli.
- 2) Birlashtiruvchi belgi : Portlovchi, jarangli, sof undosh.

NUTQ TOVUSHLARINING UCH TOMONI

Har qanday tovush ma'lum tashqi ta'sir yordamida havo oqimining tebranishi natijasida hosil bo'ladi. Tovushlar tabiiy va inson tovushlariga bo'linadi. Tabiatdagi insondan tashqarida paydo bo'lgan barcha tovushlar **tabiiy tovushlar** sanaladi.

ESLATMA! Inson nutq a'zolari harakati yordamida ma'lum maqsadda ketma-ket talaffuz qilinadigan tovushlar **inson tovushlari** deyiladi. Bular esa nutq tovushlarining uch tomoni borligidan dalolat beradi.

ESLATMA! Nutq tovushlarining uch tomoni mavjud.

1) Akustik(fizik) tomoni – Har qanday tovush havoning tebranishi natijasida hosil bo'ladi. Bu tomoni ma'lum sifat-belgiga ega: balandlik, kuch (yoki tezlik), miqdor (yoki uzunlik) va tembr belgilariga ega. **Xullas, akustik tomoni deganda tovushning jarangli-jarangsizligi; shovqinli yoki sonorligi nazarda tutiladi.** Testda **b** undoshining akustik tomoni so'ralsa, **b** – jarangli; shovqinli.

2) Fiziologik (talaffuz) tomoni – Nutq tovushlari insonning nutq a'zolari harakati natijasida vujudga keladi va u fiziologiya fani bilan uzviy bog'liqlikda o'rganiladi.

Eslatma! **Xullas, fiziologik tomoni deganda undoshlarning hosil bo'lish o'rni va usuli nazarda tutiladi.** Masalan: Testda **b** undoshining fiziologik tomoni deganda uning lab undoshi(o'rni), portlovchi(usuli.) nazarda tutiladi.

3) Vazifaviy (lingvistik) tomoni – Bu tilshunoslik uchun eng muhim. Shuning uchun lingvistik belgi, yoki tilshunoslik belgi ham deyiladi. **Xullas, so'zlarning ma'nosini bir-biridan farqlash vazifasi uning vazifaviy tomoni hisoblanadi.** Maalan: tog' – tosh so'zları tovushlar (g', sh) orqali farqlanyapti.

Xulosa, 1- tomoni tabiiy tovushlarga ham xos, 2- va 3-tomoni faqat inson tovushlariga xos.

ESLATMA! **OMOFONLAR** deganda talaffuzda shakldosh, ya'ni omonim tovushlar tushuniladi. Bunda talaffuz jarayonida jarangli undoshlarning jarangsizlanishi natijasida **omofonlar** vujudga kelishi mumkin.

Masalan: Erkin yettiga yetdi(yetti). Guvoh sudga ketdi, qo'shnim sutga ketdi; Tursun tomda tursin.

Eslatma! Omofonlar vujudga kelishi uchun gap tarkibida paronim so'zlarni keltirish kerak. (Paronim – bir tovush bilan farq qiluvchi so'zlar. Bob-bop; yetti-yetdi, tuzsiz- tussiz,)

QATOR UNDOSH VA QO'SH UNDOSH

QATOR UNDOSH – Bir bo'g'inda yonma-yon ikki xil undoshning kelishidir. (aql, qadr, farz)

Eslatma! Paxta, nimcha, o'simlik so'zlarida ham yonma-yon kelgan ikki undosh bor, lekin bir bo'g'inda bo'limgani uchun qator undosh emas.

Eslatma! Gap tarkibida qator undoshli so'z kelganda unga qo'shimcha qo'shilganda ham bu so'z qator undoshli so'zligicha qoladi. Masalan: *qarz, farz, baxt, ahd* so'zlariga qo'shimcha qo'shilgan bo'lsa ham, (*qarzi, farzim, baxti, ahdi*) asos qator undoshligicha qoladi.

Eslatma! Oxiri **st** (ost, ust), **lt** (yilt, milt), **rt** (to'rt, turt, qurt) kabi qator undoshlilar sof o'zbekcha so'zlardir.

Eslatma! Oxirida qator undosh kelgan go'sht, musht (*sht*), daraxt, baxt (*xt*), barg (*rg*) so'zlari fors-tojik tilidan o'tgan.

Eslatma! Tarkibida qator unli kelgan so'zlar ham o'zbekcha so'z hisoblanmaydi. M: muallim, muovin, soat, shior. (ko'pchiligi arab tilidan o'tgan).

Ayrim so'zlarda qatorunlilar bir cho'ziq unliga aylanadi. M: muallim (*malim*), muovin (*movin*);

Ba'zilarida talaffuzda bir undosh ortadi M: shior (*shiyor*), soat-sog'at (*Toshkentda*), soat-sohat (*Farg'onada*).

QO'SH UNDOSH – Bir xil undosh yonma-yon kelishidir. (Katta, alla, arra, muammo, ssenariy).

Eslatma! Ayrim so'zlarda qo'sh undoshlardan biri tushirilsa, so'z ma'nosi o'zgaradi. Masalan, sodda (soda), modda (moda), silla (sila), medalli (medali), nonning (noning), qattiq (qatiq).

Eslatma! Ayrimlari talaffuzda qo'sh undoshdan biri tushirilgan holda aytildi. Masalan, gramm (gram), antenna (antena).

Kilovatt, kongress, metall kabi so'zlarga har qanday qo'shimcha qo'shilganda qo'sh undoshlardan biri tushiriladi. Masalan, metall+i – metali, metal-ga – metalga.

BO'G'IN VA UNING TURLARI

Bir havo zarbi aytilgan tovush va tovushlar birikmasi **bo'g'in** deyiladi.

Eslatma! Testlarda bo'g'inlar soni so'ralsa unlilar nechta bo'lsa, bo'g'inlar soni ham shuncha bo'ladi. Chunki unlilar bo'g'in hosil qiladi. Masalan, *abadiylashtirilgan* – a-ba-diy-lash-ti-ril-gan.

Eslatma! Agar bo'g'in unli bilan tugasa **ochiq bo'g'in**, undosh bilan tugasa **yopiq bo'g'in**.

M: O'zbekiston kelajagi buyuk davlat – *o'z-be-kis-ton ke-la-ja-gi bu-yuk dav-lat.*

M: Dushmanni qurolsizlantirdik –

Eslatma! Agar bo'g'in undosh bilan boshlansa ***berkitilgan bo'g'in***, unli bilan boshlansa ***berkitilmagan bo'g'in*** deyiladi.

M: Muammolarimizni hal etdik – ***Mu-am-mo-la-ri-miz-ni hal*** et-dik.

Eslatma! Agar undosh ikkita unli o'rtasida kelsa, o'zidan keyingi unli bilan bo'g'in hosil qiladi. Masalan, deng-iz emas, de-ngiz, bol-a-lar-i emas, bo-la-la-ri, sing-il emas, si-ngil.

M: biriktirilgan –

M: Radiokarnay –

M: Aytolmaganliklaringizdandir –

Eslatma! Ng harfiy birikmasi ikki unli orasida kelsa, bo'g'inga ko'chirganda ikkinchi unli bilan bo'g'in hosil qiladi. Masalan, ko'ngil – ko'-ngil; singil – si-ngil; dengiz – de-ngiz.

Eslatma! Agar ng dan keyin undosh kelsa, ng birinchi bo'g'inda qoladi. Masalan, singli – sing-li; ko'ngli – ko'ng-li, manglay – mang-lay.

Eslatma! Yevropa tillaridan kirgan so'zlarda n va g alohida tovush, alohida harf hisoblanadi va ikkalasi ikki bo'g'inga ajraladi. Masalan, ingliz – in-gliz; kongress – kon-gress, shtanga – shtan-ga.

Eslatma! Menga, senga, unga kabi so'zlarda –ga jo'nalish kelishigi qo'shilgan. Shuning uchun ikkiga ajratiladi. Men-ga, sen-ga, u-ga.

Eslatma! O'zbek tilida bo'g'inalarning quyidagi turlari uchraydi:

1. *Bir unlidan iborat:* o-na, o-lam, u;
2. *Unli + undosh:* os-mon, ar-mon;
3. *Undosh + unli + undosh:* dav-lat, mak-tab;
4. *Unli + undosh + undosh:* aql, ilm;
5. *Undosh + unli + undosh + undosh :* qarz, shart, farz.

Eslatma! Poliglot so'zining ma'nosi "ko'p til biluvchi".

Eslatma! So'zlarning bo'g'inga ajralishi bilan asos va qo'shimchaga ajralishi ba'zan teng bo'ladi, ba'zan teng bo'lmaydi. Bu qoida faqat bir bo'g'inli so'zlarga xos.

Eslatma! Agar undosh bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shilsa bo'g'in va asos-qo'shimchaga ajratish teng. Unli bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shilsa teng emas.

Teng			
So'z +qo'shimcha	So'z	Bo'g'in	Asos va qo'shimcha
Non + ni	nonni	Non-ni	Non-ni
Uy + ga	uyga	Uy-ga	Uy-ga
Jon + ni	jonni	jon-ni	jon-ni

Teng emas			
So'z +qo'shimcha	So'z	Bo'g'in	Asos va qo'shimcha
Non + i	noni	no-ni	non-i
Uy + ing	uying	u-ying	uy-ing
Jon + i	joni	jo-ni	jon-ing

OHANG VA UNING NUTQDAGI AHAMIYATI

Og‘zaki nutq oqimi bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lgan tovushlar ketma-ketligidan iborat. Bunday bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lgan tovushlar qatori **segment birliklar** hisoblanadi.

Eslatma! Nutqimizda segment birliklardan tashqari ustsegment birliklar ham mavjud. Ular quyidagilar: ***Urg'u, to'xtam (pauza), nutqning emotsional bo'yoqlari(darak, so'roq, buyruq, his-hayajon).***

Eslatma! Segment birlik va ustsegment birliklar nutqimizni ta'sirchanligini ta'minlaydi.

URG'U VA UNING TURLARI

So'z bo'g'inlaridan birining, gapda esa so'zlardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz etilishi **urg'u** deyiladi.

Eslatma! Urg'u ikkiga bo'linadi:

- 1) **So'z urg'usi** (fonetikda o'r ganilad);
- 2) **Gap urg'usi** (ma'no urg'usi, frazaviy urg'u, mantiqiy urg'u, logic urg'u. /sintaksisda o'r.)

So'z urg'usi – so'zdagi bo'g'inlardan birining boshqalaridan kuchliroq talaffuz qilinishi **so'z urg'usi** deyiladi.

Masalan, a`kademik Rustamov – akade`mik litsey.

Eslatma! Turkiy tilda jumladan, o‘zbek tilida urg‘u o‘rniga ko‘chib yuruvchi urg‘u sanaladi. Ya’ni bunday so’zlarda urg‘u so’z oxiriga tushadi, so’zga qo’shimcha qo’shilishi bilan urg‘u ham ko‘chib boraveradi. Masalan:

o‘ri`k – o‘rikzo`r — o‘rikzorla`r — o‘rikzorlarga`.

Eslatma! O‘zbek tiliga arab, fors-tojik, rus va boshqa yevropa tillaridan o‘zlashgan so‘zlarda urg‘u barqaror o‘ringa ega. Bu urg‘uning o‘sha tillardagi ahamiyati bilan bog‘liqdir. Masalan: Tadbir, ma’lum, bahor, respublika, tijorat, reklama, monitoring. (*bu kabi so’zlarga qo’shimcha qo’shila ham urg‘u ko’chmaydi*)

Eslatma! Urg‘u ba’zi so’zlarda ma’no farqlash uchun ham xizmat qiladi.

Bog‘lar (*fe'l*) — bog‘lar(*ot*)

Hozir (*ravish*) — hozir(*sifat*)

Yangi (*ravish*) — yangi(*sifat*)

Ètik (*sifat*) — etik(*ot*)

akademik(*sifat*) — akademik(*ot*)

Eslatma! Urg‘u oxirgi bo’g’inga tushmaydigan so’zlar ham mavjud. Masalan: *ammo, lekin, zero, zeroki, hamma, barcha, bari, ba’zi, balki, albatta, afsuski, darvoqe, darhaqiqat, hozir, aslo, doim, doimo, hamisha, xuddi, zo’rg’a, qanday* va hokazo. Bularda ham qo’shimcha qo’shilsa ham urg‘u ko’chmaydi.

Eslatma! *Urg ‘u, asosan, so’zning oxirgi bo’g’iniga tushadi va so’zni gap tarkibida boshqa so’zdan farqlash hamda so’zning fonetik tarkibini uyushtirish vazifasini bajaradi.*

Eslatma! *O’zbek tilida ba’zi qo’shimcha va yuklamalar urg‘u olmaydi. Ular quyidagilar:*

- 1) **-man, -san, -miz, -siz, -di, -dir** kesimlik qo’shimchalari qo’shimchalari urg‘u olmaydi.
M: Boraman, o’qiyapman, bolaman, yaxshisiz.
Eslatma! *-siz sifat yasovchi bo’lganda urg‘u oladi: tuzsiz ovqat, suvsiz olma.*
- 2) **-ma fe'lning bo’lishsiz shakli:** *bormadi, kelma.* **-ma** so’z yasovchi bo’lganda urg‘u oladi: *yasama(sifat), damlama(ot.)*

Eslatma! *Qo’llanma, qurilma, qazilma, qurama* kabi so’zlarning oxirgi bo’g’ini (-ma) doim urg’uli bo’ladi. Chunki bu so’zlarning fe’l shkli yo’q.

- 3) **-mi, -chi, -a, -ya, -u, -yu, -ku, -da, -oq, -yoq, -gina, -kina, -qina, -ov, -yov, -dir.**
Sen-a?, bolamgina, kelgandir...

Eslatma! *–gina otga xos erkalash qo'shimchasi* bo'lsa urg'u oladi, *yuklama* bo'lsa urg'u olmaydi. –gina egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalaridan **oldin** kelsa **otga** xos erkalash, **keyin** kelsa **yuklama**.

bolaginam – erkalash, *Bolamgina* – yuklama,

- 4) **–cha, -dek, -day** *ravish yasovchi qo'shimchalar*. Masalan, yangicha, eskicha; –cha kichraytish qo'shimchasi bo'lsa urg'u oladi. Qizcha yig'ladi.
- 5) **–ta, -tacha, -larcha** *son shakllari urg'u olmaydi*. O'nta, yuztacha, minglarcha
- 6) **Bilan, uchun, sari, sayin, qadar, uzra, kabi, singari, tufayli, haqida, birga, holda...** *kabi sof ko'makchilar urg'u olmaydi. Bunda urg'u ko'makchidan oldinggi so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi*. M: osmon uzra birligida osmon so'zining oxirgi bo'g'iniga tushadi.
- 7) **Fe'llardagi –la+ -r (-la fe'l yasovchi, -r sifatdosh)** holatida urg'u olmaydi. Agar –lar bitta ko'plik qo'shimchasi bo'lsa urg'u oladi.

Bog'lar (fe'l) – bog'lar (ot); qo'lllar (fe'l) – qo'lllar (ot)

Ko'zlar (fe'l) – ko'zlar (ot) so'zlar (fe'l – so'zlar (ot)

Eslatma! Shuningdek, so'z urg'usi qo'shma so'zlarda ham turlicha bo'ladi.

- I. Tarkibida *nim, och, tim, jiqlqa, lang, to'q, g'irt* kabi so'zlar bo'lgan sifatlarda urg'u birinchi so'zga tushadi.
- II. *Oppoq, yam-yashil, qop-qora* kabi sifatlarda ham urg'u birinchi bo'g'inga tushadi.
- III. *Har va hech* so'zlari bilan hosil qilingan qo'shma so'zlarda ham urg'u birinchi qismga tushadi. M: har kim, hech qayer, har nima...

Eslatma! Gap urg'usi (ma'no urg'usi, frazaviy urg'u, mantiqiy urg'u, logik urg'u) kesimdan oldingi so'zga tushadi

Biz Samarqandga bugun boramiz – Biz bugun Samarqandga boramiz

Eslatma! Quyida urg'usini topish qiyin bo'lgan so'zlardan misol keltiramiz:

afsu`ski	bola`mday	ha`mma	la`mpa	o`blast
ahi`l	broshyu`ra	ha`r kim	le`kin	o`braz
alba`tta	dafta`r	ha`tto	le`ksiya	o`shiq
astrano`miya	dire`ktor	he`ch kim	matema`tika	o`yday
audito`riya	dotse`nt	izoto`p	mudi`r	po`yezd
a`llakim	dóim	karti`na	muhi`m	qa`ncha
a`mmo	gaze`ta	ke`lsin	muhi`t	qa`ysi
a`slo	ga`rchi	ki`mdir	mumki`n	qi`p-qizil
a`tom	gu`lday	konstitu`tsiya	muni`s	ra`dio
ba`rcha	hami`sha	ku`ldir	nafi`s	respu`blika

ru`chka	shamo`lday	to`nna	ya`m-yashil	ze`ro
sanato`riya	si`los	tra`ktor	za`vqim	vodoro`d

FONETIK HODISALAR

Nutq jarayonida talaffuz qulayligiga erishish harakati tufayli ketma-ket kelayotgan tovushlarning o'zaro ta'siri natijasida o'zgarishlarga uchrashi **fonetik hodisalar** deyiladi.(Tovush tushishi, tovush almashishi, tovush ortishi). Asosga qo'shimcha qo'shilishi natijasida so'zda tovush o'zgarishi **fuziya** ham deyiladi. Fonetik hodisalar unli tovushga ham, undosh tovushga ham xos.

1. Tovush tushishi:

Men + ni (-ning, -niki) = meni, mening, meniki

Sen + ni (-ning, -niki) = seni, sening, seniki

Ikki (olti, yeti) + ov (-ala, -ovlon) = ikkala, ikkov, ikkovlon

Yig'i + la = yig'la

O'yin + a = o'yna

Qiyin + a = qiyna

Ulug' + ay = ulg'ay

Sariq + ay = sarg'ay

Past + ay = pasay

Sust + ay = susay

Buyur + uq = buyruq

Og'iz + aki = og'zaki

Ayir + i = ayri

Ayir + im = ayrim

Ayir + il = ayril

Qayir + il = qayril

O'tir + oq = o'troq

Ingir + a = Ingra

Ho'ngir + a = ho'ngra

O'rın + a = o'rna

Qizil + ar = qizar

O'g'il, o'rın, egin, og'iz, bo'yin, qo'yin, singil, ko'ngil, qorin, bo'g'iz, yarim, burun, shahar, zahar + (egalik qo'shimchalari: -i, -im, -ing, -imiz, -ingiz = o'g'li, egni, og'zi, egni, qorni, zahri, qo'ynim, bo'g'zim, og'zi, shahri, singlim, yarmi, burni).

ESLATMA! Ayta oldi – aytoldi, qila oldi – qiloldi kabilarda tovush tushishi yuz beryapti.

ESLATMA! *Edi, ekan, emish* to'liqsiz fe'llari o'zidan oldingi so'zga *-di, -kan, -mish* shaklida qo'shilishi mumkin. Bunda tovush tushishi yuz beradi.

Bilar edi – bilardi; borar ekan – borarkan, yozar emish – yozarmish.

Misollar:

1. Malika opaning ikkala o'g'li shaharda o'qib, ulg'ayib, yana bag'rige qaytdi. (4 ta so'z: ikki + ala = ikkala, o'g'il + i = o'g'li, ulug' + ay = ulg'ay, bag'ir + i = bag'ri)
2. Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagi oldirar, To'rtovlon tugal bo'lsa, ko'kdagini indirar(2 ta so'z: olti + ovlon = oltovlon, og'iz + i = og'zi)
3. Singlimning hozirgina yig'lab turgan o'g'li bag'rida uxbab qoldi. (4a ta so'z: singil + im = singlim, yig'i + la = yig'la, o'g'il + i = o'g'li, bag'ir + i = bag'ri)
4. Ayrim rotalarni o'rnidan ko'chirish haqida og'zaki buyruq berildi (4 ta so'z: ayir + im = ayrim, o'rini + i = o'rni, og'iz + aki = ag'zaki, buyur + uq = buyruq)

2. Tovush ortishi:

U (bu, shu, o'sha) + ga (-da, -dan, -day, -aqa, -cha), egalik qo'shimchalari (-i, -im, -ing, -imiz, -ingiz) = unga, bunda, shunday, o'shanaqa, o'shancha, unim, bunim, buningiz.

Achi, isi, sasi + q = achchiq, issiq, sassiq

His, tib + iy = hissiy, tibbiy

Jiz, taq, shart + a = jizza, taqqa, shartta

Shar, chuv + os = sharros, chuvvos

Var, g'ur + ak = varrakg'urrak

Eslatma! Parvo, obro', mavqe, avzo + I va II, III shaxs egalik qo'shimchasi; mavzu + I va II shaxs egalik qo'shimchasi = parvoyim, obro'yim, mavqeyim, mavzuyim.

Yemoq, demoq + il, -ish = yeyilmoq, deyilmoq, yeyish, deyish

3. Tovush almashishi:

K va q bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilsa, k tovushi g tovushiga, q tovushiga g' tovushiga almashadi:

Tilak + im = tilagim; bilak + im = bilagim, bolalik = im = bolaligim, qulog = im = qulog'im, qishloq + im = qishlog'im (Ba'zi so'zlar bundan mustasno: nok, chok, park, erk, ishtirok, huquq, ravnaq, ko'rk, idrok, nutq, zavq + im = nokim, ishtirokim, erkim, huquqim, ko'rkim

Ong + la = angla

Son + a = sana

Yosh + a = yasha

Ot = a = ata

Yor + a = yara

Yosh + ar = yashar

Chuchi + k = chuchuk

Ishqa + r = ishqor

Tala + n = talon

So'ra + q = so'roq

Tarqa + q = tarqoq

Sayra + qi = sayroqi

Tara – taroq, sana – sanoq, suva – suvoq, bo'ya – bo'yoq, yama – yamoq, qiyina – qiyinoq, quvna – quynoq, mudra – mudroq, bodra- bodroq, yumsha – yumshoq, qiyina – qiyinoq, sovi – sovuq, quri – quruq, o'yna – o'ynoqi, yig'i – yig'loqi kabi so'zlarda a tovushi o ga almashadi.

ESLATMA! Bora ber – boraver, o'qiy ber – o'qiyver kabilarda tovush almashishi yuz bergen.

ESLATMA! Quyidagi so'zlarda bir necha tovush o'zgarishlari kuzatiladi:

O'ynoqi = o'yin + a = o'yna + qi = o'ynoqi - 2 ta tovush o'zgarishi: 1 ta tovush tushishi (i), 1 ta tovush almashishi (a)

Yig'loqi = yig'i + la = yig'la + qi = yig'loqi – 2 ta tovush o'zgarishi: 1 ta tovush tushish (i), 1 ta tovush almashishi (a)

Sanog'im = son + a = sana + q = sanoq + im = sanog'im – 3 ta tovush almashishi

Buyrug'ingiz = buyur + uq = buyruq + ingiz = buyrug'ingiz – 2 ta tovush o'zgarishi: 1 ta tovush tushishi (u), 1 ta tovush almashishi (q)

ESLATMA! A va i unli bilan tugagan fe'llardan –v qo'shimchasi yordamida harkat nomi hosil qilinganda, a tovushi o ga, i tovushi u ga almashadi:

Sayla + v = saylov O'qi + v = o'quv.

Yuqoridagi misollardek quyidagi mashqlarni bajaring. (*testda eng ko'p shundan tushadi*)

1. Yashash uchun foydali mehnat qilish kerakligini anglab yetish insonlikning birinchi shartidir.
2. Men ko'rghanman osmonlarning tinig'ini, toshlar tegdi, olib ketdim sinig'ini, shunda anglab nomardlrning qilig'ini
3. Unga egnidagi ko'y lagi juda yarashgandi.
4. Ishqqa mubtalo oshiq yorning vafosizligidan azob chekardi
5. Qo'yni puch yong'oqqa to'lgan xalq zolim beklarni jazolashga bel bog'laganmish.

GRAFIKA (harf)

Boshqa xalqlar qatori o'zbek xalqi ham o'tmishda bir qancha yozuv turlaridan foydalangan. Avesto, urxun-enasoy, sug'd, xorazm, uyg'ur yozuvlari shular jumlasidandir. O'zbek xalqi 1930-yilga qadar bir necha yuz yillar davomida arab grafikasiga asoslangan turkiy yozuvdan foydalanib kelgan. Abu Ali ibn, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al-Xorazmiy, Ulug'bek, Forobiy singari buyuk olimlarimizning ilmiy mushohadalari, Lutfiy,

Navoiy, Bobur, Mashrab, Furqat, Cho'lpon-u Fitratlarning asarlari aynan ana shu yozuvda bitilgan.

1930-yildan to 1940-yilga qadar xalqimiz lotin yozuvidan foydalandi. 1940-yilning may oyidan boshlab esa rus grafikasiga asoslangan o'zbek yozushi amalda tatbiq etildi.

1993-yilning 2-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi.

1995-yilning 6-may kuni O'zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonunga o'zgartirishlar kiritish haqida»gi Qonuni e'lon qilindi.

ESLATMA! Dastlabki qonunda o'zbek alifbosi 31ta harf va bitta “ ” tutuq belgisi (apostrof)dan iborat deb belgilangan. 1995-yildagi o'zgartirishda 26 ta harf, 3 ta harfiy birikma (sh,ch,ng) sifatida o'zgartirildi.

Eslatma! Hozirgi o'zbek adabiy tilida 23 ta undosh tovush mavjud. 20 ta harf, 3 ta harfiy birikma bilan ifodalangan. 20 ta harf xalqaro andozadagi belgilar olindi. 3 ta harfiy birikma (sh,ch,ng) o'zbek tilining o'z xususiyatidan kelib chiqdi.

Eslatma! Asperant so'zi “aspero” so'zidan olingan bo'lib, “Bilim egallahga in tilish” degan ma'noni anglatadi.

ORFOGRAFIYA

Orfografiya yunoncha “orfo” – to'g'ri, “grapho” – chizma so'zlaridan olingan bo'lib, to'g'ri yozish me'yorlarini o'rjanuvchi tilshunoslik bo'limidir.

Eslatma! Yozuv har bir xalqning ma'naviy boyligi, yuksak madaniyatga erishganligining o'ziga xos ko'rinishi sanaladi.

Eslatma! O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yilning 24-avgustida 339-sonli «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlash haqida» qaror qabul qildi. U **82 banddan** iborat bo'lib, quyidagi **7 bo'limlarni** o'z ichiga oladi:

1. Harflar imlosi:
 - a) unlilar imlosi (1—7-bandlar);
 - b) undoshlar imlosi (8—32-bandlar).
2. Asos va qo'shimchalar imlosi (33—37-bandlar).
3. Qo'shib yozish (38—50-bandlar).
4. Chiziqcha bilan yozish (51—56-bandlar).
5. Ajratib yozish (57—65-bandlar).
6. Bosh harflar imlosi (66—74-bandlar).
7. Ko'chirish qoidalari (75—82-bandlar).

UNLILAR IMLOSI

1. A a harfi savol, zamon, bahor so'zlarida «o» kabi aytilsa ham har vaqt «a» yoziladi.

2. O o harfi boshqa tillardan kirgan quyidagi so‘zlarda «a» singari talaffuz etiladi, biroq hamisha «o» yoziladi: kollej, monitoring, dekoratsiya, omonim, okulist va h.k.

Eslatma! Shuningdek, o ba’zan o‘ kabi aytishi ham mumkin, lekin baribir «o» yozilaveradi: tonna, noyabr, boks, tort va h.k.

3. Ii harfi bilan, bilim, til, tilak, har xil, qism kabi so‘zlarda qisqa aytildi va «i» yoziladi, badiiy, ommaviy, Lutfiy singari so‘zlarda «i» cho‘ziq aytildi, lekin doimo «iy» yoziladi.
4. Uu harfi yutuq, butun, tovuq, sovuq,sovun kabi so‘zlarda «i»ga monand talaffuz etilsa-da, qoidaga binoan «u» yoziladi.
5. O‘o‘ harfi o‘zbek, o ‘lka, o‘simlik kabi so‘zlarda old qator, o‘rta-keng, lablangan unli tovushni ifodalash uchun yoziladi.
6. E e harfi e’lon, ehtirom, fe’l, bermoq, meros, mone, tole, kofe kabi so‘zlarda old qator, o‘rta-keng, lablanmagan unli tovushni ifodalash uchun yoziladi:
7. «e», «ë», «ю», «я» harflari yangi alifboda quyidagicha yoziladi:
e: yetti, yetmish, yetim;
yo: yolg‘iz, yomon, yong‘oq;
yu: yulduz, yumshoq, yumuq.
ya: yakka, yangi, yaroqsiz.
8. Milliard, material, million, radio, ukrain, said, doim, shoir, teatr, okean singari so‘zlar talaffuzida unlilar orasida «y» undoshi qo‘sib aytilda, yozuvda tushib qoladi.

UNDOSHLAR IMLOSI

1. «B» tovushi borib, javob, hisob, bob, xitob kabi so‘zlarda «p», qibla, tobla so‘zlarida «v» tarzida aytilda ham «b» yoziladi.
2. Avtomat, avtobus, avtomobil kabi so‘zlarda «v» tovushi «f » tarzida tallafuz qilinsa-da, doimo «v» yoziladi.
3. Fursat, fizika, fabrika, fahm-farosat, fasl singari so‘zlarda «f » tovushi «p» kabi aytildi, lekin asliga muvofiq ravishda har doim «f » yoziladi.
4. Obod, ozod, faryod, tadbir, tadqiqot kabi so‘zlarda «d» tovushi «t » tarzida aytilda, har vaqt «d» yoziladi.
5. Iztirob, tuzsiz, bo‘zchi so‘zlarida «z» tovushi «s» kabi aytildi, biroq hamisha asliga mos ravishda «z» yoziladi.
6. J j harfi jon, jahon, juma, g‘ijjak, vaj so‘zlarida til oldi, jarangli, portlovchi «j», jurnal, ajdar, garaj, tiraj so‘zlarida esa til oldi, jarangli, sirg‘aluvchi «dj» undosh tovushini ifodalash uchun yoziladi.

7. Sh alohida tovushni ifodalasa, oraga tutuq belgisi qo‘yiladi: Is’hoq, as’hob kabi.
 8. Farzand, band, poyezd so‘zlaridagi «d» undoshi, go‘sht, past, artist so‘zlaridagi, «t» undoshi talaffuzda tushib qolsa ham yozuvda doimo ifodalanadi.
 9. Ng harfiy birikmasi ikki unli orasida kelsa, bo‘g’inga ko‘chirganda ikkinchi unli bilan bo‘g’in hosil qiladi. Masalan, ko’ngil – ko’-ngil; singil – si-ngil; dengiz – de-ngiz.
- Eslatma!** Agar ng dan keyin undosh kelsa, ng birinchi bo‘g’inda qoladi. Masalan, singli – sing-li; ko’ngli – ko’ng-li, manglay – mang-lay.

Eslatma! Yevropa tillaridan kirgan so‘zlarda n va g alohida tovush, alohida harf hisoblanadi va ikkalasi ikki bo‘g’inga ajraladi. Masalan, ingliz – in-gliz; kongress – kon-gress, shtanga – shtan-ga.

Eslatma! Menga, senga, unga kabi so‘zlarda –ga jo‘nalish kelishigi qo‘shilgan. Shuning uchun ikkiga ajratiladi. Men-ga, sen-ga, u-ga.

Tutuq belgisining vazifalari:

1. *A’lo, ra’no* kabi so‘zlarda unlidan keyin kelib, uning cho‘ziqroq aytilishini ta’minlaydi.
2. *San’at, in’om, mas’ul* kabi so‘zlarda unlidan oldin qo‘yilib, uning undosh tovushdan ajratib aytilishini ta’minlaydi.
3. *Is’hoq, as’hob* kabi so‘zlarda “s” va “h” undoshlarini “sh” harfiy birikmasidan farqlash uchun ishlatiladi.
4. *San’at – sanat, sa’va – sava, qal’a – qala, she’r – sher, ta’na – tana, a’yon – ayon, ma’tal – metal, ta’qib – taqib, da’vo – da’vo* kabi so‘zlarda so‘z ma’nosini farqlaydi.
5. Mo‘jiza, mo‘tadil, mo‘tabar kabi so‘zlarda o‘ unlisi cho‘ziqroq aytiladi, lekin tutuq belgisi qo‘yilmaydi.

ASOS VA QO’SHIMCHALAR IMLOSI

1. a unlisi bilan tugagan fe’llarga –v, -q, -qi qo‘shimchalari qo‘shilganda a unlisi o aytiladi va shunday yoziladi: sayla-saylov, qayna-qaynoq, sayra-sayroqi. Shuningdek, o‘qi-o‘quvchi, sovi-sovuq, to’qi-to’quvchi so‘zlarida i unlisi u ga aylanadi, va shunday yoziladi.
2. K k harfi bilan tugagan so‘zlarga egalik qo‘shimchalari qo‘shilsa, ular g va g’ ga aylanadi:
Yurak-yuragi, bilak-bilagi, tilak-tilagim, buloq-bulog’im, quloq-qulog’im, qishloq-qishlig’i. Erki, ishtiroki, huquqi, ravnaqi so‘zlarida bunday holat kuzatilmaydi.
3. Quyidagi qo‘shimchalar qo‘shilganda asosda tovush tushish hodisasi ro‘y beradi. *Singil, o’rin, ko’ngil, o’g’il, shahar* kabi so‘zlarga egalik qo‘shimchasi (-m, -im, -ng, -ing, -i, -si), *qayir, ayir* so‘zlariga nisbat qo‘shimchasi(-il), *ikki, olti, yeti* so‘zlariga jamlovchi son hosil qiluvchi qo‘shimchasi(-ov, -ala, -ovlon)

4. ***U, bu, shu, o'sha*** olmoshlariga –da, -dan, -day, -dagi, -cha *qo'shimchalari* qo'shilsa, bitta *n* undoshi orttiriladi: unda, bunda, shuncha, bunday, undagi
Aksincha ***men, sen***, olmoshlariga –ni, –ning, -niki *qo'shimchalari* qo'shilsa, bitta *n* tushirib qoldiriladi: Meni, seni, mening, sening, seniki, meniki.
 5. Parvo, obro', mavqe so'zlariga egalik *qo'shimchalari* qo'shilsa, bitta *y* tovushi orttiriladi: *parvoyi, obro'yim, mavqeying*
 6. ***-bon, boz*** *qo'shimchalari* –von, -vos, kabi aytilsa-da, doimo asli shakli bo'yicha yoziladi: **qimorvoz emas, qimorboz; dorvoz emas, dorboz; darvozavon emas, darvozabon** (morfologik ***yozuv***)
 7. ***-dir*** nisbat *qo'shimchasi* jarangli undosh bilan tugagan bit bo'g'inli so'zlarga *qo'shiladi*: *yondir, quvdir, bordir.* (kel so'zi bundan mustasno, ya'ni ***keltir***), qolgan o'rirlarda –tir shaklida aytiladi va shunday yoziladi: ektir, quyultir, kestir, choptir.
 8. ***-ga, -gach, -gacha, -guncha, -gani, -gudek, -gan, -gin, gina*** qoshimchalari uch xil aytiladi va yoziladi: ertaga, borgach, ertagacha, borguncha, borgudek; eshikka, eshikkacha; chiqqach, chiqquncha, chiqqach, chiqqudek.
- Eslatma!** Bargga, pedagogga, bug'ga, sog'gan, og'gan, sig'guncha, tog'ga so'zları bunga kirmaydi. Chunki g va g' bilan tugagan so'zlarga –ga, -gach, -guncha, gani, -gan, gudek, -gin, -gina shaklida o'zgarmasdan qoshiladi.

Eslatma! Yuqoridagilarning deyarli hammasi(shu listdagilar) fonetik yozuvga misol bo'la oladi.

QO'SHIB YOZISH

1. ***Xona, noma, poya, bop, xush, ham, kam, umum, rang, mijoz, sifat,, talab*** kabi so'zlar yordamida yasalgan *qo'shma* ot va *qo'shma* sifatlar *qo'shib* yoziladi: qabulxona, tabriknoma, taklifnomma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug'doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab.
2. ***-r, -ar, -mas*** qoshimchasi bilan tugaydigan *qo'shma* ot va *qo'shma* sifatlar *qo'shib* yoziladi: o'rribosar, otboqar, cho'lquvar, ishyoqmas, qushqo'nmas.
3. Takror taqlid so'zlarga *qo'shimcha* *qo'shilishi* bilan yasalgan ot va fe'llar *qo'shib* yoziladi: pir-pir – ***pirpirak***; hay-hay – ***hayhayla***, shar-shar – ***sharshara***, gij-gij – ***gijgijla***.
4. ***Narsani boshqa bir narsaga qiylash orqali*** hosil qilingan *qo'shma* otlar va sifatlar *qo'shib* yoziladi: toshbaqa, oybolta, qo'yko'z, sheryurak, otquluoq, bodomqovoq, karnaygul.
5. ***Narsani uning rangi, mazasi va boshqa bekgilari*** bilan ataluvchi *qo'shma* otlar *qo'shib* yoziladi: olaqrg'a, qizilishton, ko'ksulton, achchiqtosh, mingoyoq, qirqoyoq
6. ***Narsaning nima uchun mo'ljallangani*** kabi ma'nolarni bildiruvchi *qo'shma* so'zlar *qo'shib* yoziladi: ko'zoymak, kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, nosqovoq.
7. ***Narsani joyiga nisbat berish*** orqali hosil bo'lgan *qo'shma* otlar *qo'shib* yoziladi: tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul,

8. **Marosim, afsona nomlarini** bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: kiruyvdı, kelintushdi, urto'qmoq, ochildasturxon.
 9. **Ikkinchı qismi turdosh ot yoki obod so'zi** bilan ifodalangan joy nomlari qo'shib yoziladi: Yangiyo'l, To'rtko'l, Mirzaobod, Dehqonobod, Balandmachit.
- Eslatma!** Ikkinchı qismi atoqli ot bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: O'rta Osiyo, Ko'hna Urganch, O'rta Chirchiq
10. **Ruscha, baynalmilal yoki tarjima qilingan** qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: kinoteatr, radiostansiya, teleko'rsatuv, telestudiya fotoapparat, radioto'lqin, elektrarra,
 11. Qisqartmalarning barcha turlari va ularga qo'shiladigan qo'shimchalar qio'shib yoziladi: SamDU, ToshDU.

CHIZIQCHA BILAN YOZISH

1. Juft so'z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: el-yurt, kiyim-kechak, adi-badi, oz-moz.
2. Agar juft so'zlar orasida u-yu yuklamasi kelsa, ana shu yuklamalardan oldin chiziqcha qo'yiladi: do'st-u dushman, kecha-yu kunduz, ota-yu ona.
3. Qop-qora, qip-qizil, yam-yashil, sap-sariq, to'ppa-to'g'ri kabi kuchaytirma sifatlar chiziqcha bilan yoziladi. Lekin oppoq so'zi qo'shib yoziladi.
4. -ma, -ba qo'shimchalari yordamida birlashgan qismlar chiziqcha bilan yoziladi: uymauy, ko'chama-ko'cha, rang-barang, dam-badam
Eslatma: lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday so'zlar qo'shib yoziladi: darbadar, ro'baro'
5. -chi, -a, -ya, -u, -yu, -ku, -da yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi, -mi, -oq, -yoq, -gina, -kina, -qina, -dir yuklamalari esa o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi. Sen-chi? Senmi?
6. Tartib son arab raqami bilan yozilsa chiziqcha qo'yiladi, rim raqami bilan yozilsa chiziqcha qo'yilmaydi: 1995-yil, 3-kurs / XXI asr, X sinf.

AJRATIB YOZISH

1. Qo'shma fe'llar va ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari ajratib yoziladi. Olib ber, borib kel, ishlab chiqar (qo'shma fe'l); yozib tur, ayta qol (ko'makchi fe'lli s. q.)
Eslatma: agar har ikkala fe'l ham mustaqil ma'no bildirsa, qo'shma fe'l hisoblanadi.
Agar birinchi fe'l mustaqil ma'noni ifodalab, ikkinchisi ma'no ifodalamasa, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi deyiladi.
Eslatma: ba'zi ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari qo'shib yozilishi mumkin:
I yetakchi fe'l a bilan tugab, ko'makchi fe'l o bilan boshlansa qo'shib yoziladi: ayta oldi – aytoldi (fonetik yozuv); bora oldi – boroldi (fonetik yozuv).
II. yetakchi fe'l a yoki tovushi bilan tugab, ko'makchi fe'l b bilan boshlansa qo'shib yoziladi:
Ayta ber – aytaver (fonetik yozuv); o'qiy ber – o'qiyver (fonetik yozuv)

2. Har, hech, bir, u, bu, shu, o'sha, hamma kabi so'zlar bilan yasalgan qo'shma olmosh va qo'shma ravishlar har doim ajratib yoziladi: har kim, hech nima, hech kim (olmoshlar); bir zum, u yer, bu yoq, shu joy, hamma vaqt (ravishlar).
 3. Ko'makchilar o'zi bog'langan so'zdan ajratib yoziladi, lekin bir so'roqqa javob bo'lib, bir gap bo'lagi vazifasida keladi: sen kabi, do'sti uchun, mакtab tomon.
- Masalan: Bolalar mакtab tomon ketdi. U do'sti uchun oldi.
- Eslatma: bilan, uchun ko'makchilari –la, -chun ko'rinishida chiziqcha bilan yozilishi mumkin: Qalam-la men to'qiyman qo'shiq.
4. Sifatning orttirma darajasini hosil qiluvchi lang, liq, tim, to'q, och, jiqqa so'zlari har doim ajratib yoziladi: lang ochiq, liq to'la, tim qora, to'q qizil, och sariq, jiqqa ho'l.
 5. Murakkab son qismlari ajratib yoziladi: bir ming to'qqiz yuz to'qson beshinchi yil (1995-yil).
 6. Yildan yilga, kundan kunga, tomdan tomga, ochiqdan ochiq, yangidan yangi, ko'pdan ko'p kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lган birikmalar o'rtasida chiziqcha qo'yilmaydi va ajratib yoziladi.
 7. Izofali birikmalar har doim ajratib yoziladi (izofa – fors-tojik tilida egalik qo'shimchasi va qaratqich kelishigi o'rnida keluvchi vosita) unli bilan tugagan so'zlarga –yi izofasi, undosh bilan tugagan so'zlarga –i izofasi qo'shiladi:
- Tarjimayi hol – (holatning tarjimasi)
Oynayi jahon – (Jahonning oynasi)
Ahli Andijon – (Andijonning ahli)
- Eslatma: gulbeor, dardisar kabi izofali so'zlar hozirgi o'zbek tilida qo'shib yoziladi.

BOSH HARFLAR IMLOSI

Quyidagi qoidalar gap boshi, o'rtasi va oxiri uchun birdek taalluqli.

1. Kishi ismi, ota ismi, familiyasi va taxallusi bosh harf bilan yozladi:
Saidov Olim, Akbarovich, Navoiy, Fuzuliy.
 2. Mamlakat, shahar, qishloq, shaharchalar, daryo, dengiz, tog', tepe va adir nomlari bosh harf bilan yoziladi: *Toshkent, Orol dengizi, Tinch okeani*
 3. Yulduz, sayyoralar va boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan yoziladi:
Quyosh, Yer, Hulkar, Qavs.
 4. Korxona, tashkilot, muassasa nomlari, adabiyot va san'at asarlari, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlari, transport vositalarining nomlari qo'shtirnoq ichida bosh harf bilan yoziladi: "Malika" firmasi, "Navoiy" jamg'armasi, "Amudaryo" jurnali, "Damas" avtomobili, "Shaytanat" asari.
- Eslatma!** Ko'kdumaloq kompressor stansiyasi, Xorazm chanqov bosdi ichimliklar zavodi, Qizilqum fosforid kombinati kabi nomlar qo'shtirnoqqa olinmaydi va birinchi so'zi bosh harf bilan yozildi.
5. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi faqat birinchi so'z bosh harf bilan yoziladi: *Mustaqillik kuni, Navro'z bayrami, Xotira va qadrlash kuni.*

6. Oliy darajadagi davlat tashkilotlari va xalqaro tashkilotlarning nomlari tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan yoziladi:

Vazirlar Mahkamasi, Oliy Majlis, Yevropa Ittifoqi Kengashi, Birlashgan Millatlar Tashkilotlari.

Eslatma! Qolgan vazirliklar, idoralar, tashkilotlarning nomlari tarkibidagi faqat birinchi so'z bosh harf bilan yoziladi:

Mudofaa vazirligi, Qarshi davlat universiteti, Davlat test markazi, Buxoro viloyati hokimiyati.

7. Oliy darajadagi unvonlarning nomlari tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan qo'shtirnoq ichida yoziladi: "O'zbekiston Qahramoni", "Oltin Yulduz" medali.

Eslatma! Qolgan unvon va mukofotlarning faqat birinchi so'zi bosh harf bilan yoziladi: "Sog'lom avlod uchun"

8. Nuqta, so'roq, undov, ko'p nuqta tinish belgilaridan so'ng gap bosh harf bilan boshlanadi. (Har bir gap bosh harf bilan boshlanadi.)

9. She'riyatda har bir misra bosh harf bilan boshlanadi.

Nomlar imlosi

«Amudaryo» jurnali
«Damas» avtomobili
«Mahalla» jamg'armasi
«Malika» firmasi
«Matiz» avtomobili
«Mustaqillik» ordeni
«O'zbekiston Qahramoni»
unvoni
«O'zbekiston xalq artisti»
«O'zqishloqxo 'jmashxolding
» kompaniyasi
«Oltin Yulduz»
«Sharq» nashriyot-matbaa
konserni
«Shaytanat» asari
«Turon» ishlab chiqarish
birlashmasi;
«Umid» jamg'armasi
Davlat test markazi

Davlatobod
Don mahsulotlari davlat-
aksionerlik korporatsiyasi
(«O'zdonmahsulot»)
G'arbiy Yevropa
Hindiston
Ko'hma Urganch
Ko'kdumaloq kompressor
stansiyasi
Markaziy Osiyo
Muborak
Mustaqillik kuni
Navro'z bayrami
Navro'z bayrami
O'zbekiston Respublikasi
O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Oqtepa
Qashqadaryo

Qizilqum fosforit kombinati
Qo'ng'irtog'
Qora dengiz
Tentaksoy
Uchqo'rg'on
Urgut
Xo'jaobod
Xorazm chanqovbosti
ichimliklar zavodi
Xotira kuni
Xususiy tadbirkorlik va
kichik biznesni qo'llab-
quvvatlash jamg'armasi
Yevropa Ittifoqi Kengashi
Mudofaa vazirligi
YUNESKO tashkiloti

KO'CHIRISH QOIDALARI

1. Ko'p bo'g'inli so'z bir satrdan ikkinchi satrga bo'g'in asosida ko'chiriladi: Makt-ab emas mak-tab.
2. Tutuq belgisi har doim o'zidan oldingi bo'g'inda qoladi: Jur'at, ma'no, san'at.
3. Agar so'zning bиринчи bo'g'ini bir unlidan iborat bo'lsa, uning yakka o'zi keyingi qatorga ko'chirilmaydi: a-babiyy emas aba-diiy, o-lam emas olam.
4. Agar so'zning oxirgi bo'g'ini bir unlidan iborat bo'lsa, uning yakka o'zi keyingi qatordga ko'chirilmaydi: mudofa-a emas mudo-faa, mudda-o emas mud-dao.
5. **Chetdan kirgan so'zlarda yonma-yon kelgan undoshlar ikki xil ko'chiriladi:**
 - I. Agar ikki undosh yonma-yon kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi: *Mo-no-gra-fi-ya, or-fo-gra-fi-ya, di-a-gram-ma.*
 - II. Agar uchta undosh yonma-yon kelsa, bиринчи undosh oldingi satrda, qolgan ikkita undosh keyingi satrga o'tadi: *Ingliz – in-gliz, kongress – kon-gress, silindrik – silin-drik.*
6. **Sh, Ch, Ng** harfiy birikmalari birgalikda ko'chiriladi: *ko'-ngil, si-ngil, de-ngiz.*
7. Qisqartma so'zlar, ko'p xonali raqamalar keyingi qatorga ko'chirilmaydi: *BMT, 1995, 27-dekabr*

YOZUV TAMOYILLARI

1. Fonetik yozuv
2. Morfologik yozuv
3. Shakliy yozuv
4. Ta'rixiy-an'anaviy yozuv
5. Farqlash tamoyili (yozuv)

1) **Fonetik yozuv** – Bunda so'z va qo'shimchalarni eshitganimiz bo'yicha yozamiz. Bunda tovush tushishi, ortishi va almashishi kabi fonetik hodisalar kuzatiladi. Quyidagilar fonetik yozuvga misol bo'la oladi:

So'z yasovchilarning fonetik holati:

- a** *tovush tushiradi va almashtiradi:* o'yin-a – o'yna, qiyin-a – qiyna, son-a – sana, yosh-a – yasha.
- ar** *tovush tushiradi:* qizil-ar – qizar,
- ay** *tovush tushiradi va almashtiradi:* sariq-ay – sarg'ay, past-ay – pasay, sust-ay – susay.
- la** *tovush tushiradi va almashtiradi:* yig'i-la – yig'la, ong-la – angla.
- aki** *tovush tushiradi:* og'iz-aki – og'zaki
- i, -im** *tovush tushiradi:* ayir-im – ayrim, ayir-i – ayri
- q** *tovush almashtiradi va orttiradi:* sovi, so'ra, qayna, quvna+q – sovuq, so'roq, qaynoq, quvnoq; achi, sasi, isi+a – achchiq, sassiq, issiq.
- qi** *tovush almashtiradi:* o'yna-qi – o'ynoqi, sayra-a – sayroqi,
- kin** *tovush tushiradi:* chiri-kin – chirkin,
- uq** *tovush tushiradi:* buyur-uq – buyruq.
- gi** *tovush orttiradi:* erta-gi – ertangi.

-illa *tovush almashadiradi:* shov-illa – shovulla, duk-illa – dukulla.

-v,-vchi *tovush almashadiradi:* to'qi+-v,-vchi = to'quv, to'quvchi; o'qi+-v,-vchi =o'quv, o'quvchi

Shakl yasovchilarning fonetik holati:

-ga jo'nalish kelishigi -ka, -qa tarzida tovush almashadi: qishloqqa, elakka, bilakka.

-ga, -dan, -gacha, -cha, -aqa, -dek, -day *qo'shimchalari tovush orttiradi:* u+ga=unga, bu+dan=bundan, o'sha+day=o'shanday, bu+aqa=bunaqa, shu+day=shunday.

-ni, -ning, -niki *tovush tushiradi:* men+ni=meni, sen+niki=seniki, men+ning=mening

-im, -ing, -imiz, -ingiz, -i *tovush orttiradi, tovush almashadiradi, tovush tushiradi:*

tilak-im – tilagim, oyoq-im – oyog'im,

burun-im – burnim, qo'yin-im – qo'ynim, bag'ir-im = bag'rim

bu+im=bunim, u+im=unim

-ov,-ala, -ovlon *qo'shimchalari tovush tushiradi:* ikki-ikkov, ikki-ikkala, olti-oltov, yetti-yettov.

-ta, -tadan *tovush almashadiradi:* bir-bitta, bir-bittadan

-ish, -imtir *tovush tushiradi va almashadiradi:* sariq-sarg'imtir, sariq-ish – sarg'ish

-il *tovush tushiradi va orttiradi:* qayir, ayir+il = qayril, ayril; Ye, de+il= yegil, deyil

Eslatma! Quyidagi holatlar ham fonetik yozuv hisoblanadi:

1. **Edi, ekan, emish** to'liqsiz fe'llari o'zidan oldingi so'zga *-di, -kan, -mish* shaklida qo'shilishi mumkin. Bunda tovush tushishi yuz beradi.

Bilar edi – bilardi; borar ekan – borarkan, yozar emish – yozarmish.

2. **Bora ber – boraver, o'qiy ber – o'qiyver** kabilarda tovush almashishi yuz bergen.

Eslatma! Testda fonetik yozuvdagi so'zlar miqdori so'ralsa fonetik hodisaga uchragan so'zlarni sanaymiz; fonetik hodisalar miqdori so'ralsa, har bir fonetik hodisalarni sanaymiz; fonetik hodisalar turlari (tovush tushishi, ortishi, almashishi)kabi savollar keladi. Shartini adshtirib qo'ymaslik kerak.

Namuna: Ayrim rotalarni o'z o'rnidan ko'chirish haqida og'zaki buyruq olindi.

Fonetik yozuvdagi so'zlar miqdori? – 4 ta (ayrim,o'rni, og'zaki, buyruq)

Fonetik hodisalar miqdori ? – 4 ta (ayrim,o'rni, og'zaki, buyruq)

1. Shunda ayol fig'on chekib dedi: “ -qornimga emas, balki qadrimga yig'layman”.

Fonetik yozuvdagi so'zlar miqdori?

Fonetik hodisalar miqdori ?

2. Oltovlon ola bo'ls, og'zidagin oldirarkan, to'rtovlon tugal bo'ls, ko'kdagini undirarkan.

Fonetik yozuvdagi so'zlar miqdori?

Fonetik hodisalar miqdori ?

3. Ona bag'rida millat beshigi, qalbida yopilmas qadr eshigi, allasi oromdir – hayot qo'shig'idir.

Fonetik yozuvdagi so'zlar miqdori?

Fonetik hodisalar miqdori ?

4. Korxona boshlig'i bunday xodimlarni bittagina oddiy xatosi uchun jazolardi.

Fonetik yozuvdagi so'zlar miqdori?

Fonetik hodisalar miqdori ?

2) Morfologik yozuv – Bu yozuv qoidasiga ko’ra so’zlar asliga muvofiq yoziladi, ya’ni so’zlarni qanday eshitishimiz va qanday talaffuz qilishimizdan qat’iy nazar o’z aslicha yozoladi. *Ketti emas, ketdi; boramis ems, boramiz; Toshkenttan emas, Toshkentdan;*

Eslatma! *Orfografiyadagi harflar imlosi hamda asos va qo’shimchalar imlosining ko’pchilik qoidasi morfologik yozuvga misol bo’la oladi.*

3) Shakliy yozuv – Bu yozuv qoidasiga ko’ra boshqa tillardan kirgan so’zlar o’sha tillarda qanday yozilsa, bizda ham xuddi shunday yoziladi.

direktir *emas*, direktor; traktir *emas*, traktor. Shuningdek, *ilm, sinf, aql, nutq, shart, qarz*, kabi so’zlar shakily yozuv qoidasi bo’yicha yoziladi.

4) Tarixiy-an’naviy yozuv – Bu yozuv qoidasiga ko’ra, so’zlar tarixan qanday yozilgan bo’lsa, bugungi kunda ham shunday yoziladi.

Masalan: Germaniya-Olmoniya, Yevropa-Ovro’pa.

Eslatma! Ba’zi so’zlarning bir necha xil ko’rinishda yozilishi ham shu yozuvga asoslanadi.

Kaptar-kabutar, badtar-battar, masjid-machit, obro’-obro’y, gado-gadoy, o’ltirish-o’tirish, podsho-podshoh, gazmol-gazlama, shosupa-shohsupa, odob-adab, berk-bekik, hayqirish-ayqirish, ajdar-ajdaho-ajdarho.

5) Farqlash yozuv tamoyili – Bu tamoyil so’z ma’nolarining tutuq belgisi va urg’u yordamida farqlanishini tushuntiradi: sava – sa’va, san’at – sanat, hozir – hozir.

ORFOEPIYA

Orfoepiya – yunoncha “orfo”- to’g’ri, “epos”- so’zlamoq, nutq so’zlaridan olingan bo’lib, *to’g’ri talaffuz me’yorlarini o’rganuvchi tilshunoslik bo’limidir.*

Orfoepiya qoidalari:

1. So’zlarning birinchi bo’g’inida **r, l** undoshlaridan oldin kelgan *i* unlisi bilinear-bilinmas talaffuz qilinsa ham, yozuvda yoziladi. *Bilan, biroq, sira...*

2. So’zlarning birinchi bo’g’inidagi *u* unlisi ta’sirida ikkinchi bo’g’indagi *i* unlisi ham *u* tarzida aytilsa ham, yozilmaydi. *Muhim (muhum emas), muhit, muqim, mumkin*

Eslatma! Ba’zi so’zlarning *i* ham, *u* ham yoziladigan ko’rinishlari mavjud bo’lib, ular o’zaro paronim hisoblanadi. Farqlash lozim.

Urish(fe’l) – urush(ot); yurish(fe’l) – yurush(ot), yumish(fe’l) – yumush(ot), qurit(fe’l) - qurut(ot), yuvindi(fe’l) – yuvundi(ot), kuyindi(fe’l) – kuyundi(ot), unim – unum.

3. Qator kelgan unlilar chetdan kirgan bo’lsa, o’zbek tilida ikki xil talaffuz qilinadi:

I. Bir cho’ziq unliga aylanadi: *Muallim* – [malim], *saodat* – [sodat], *muovin* – [movin].

II. Qator unlilar orasiga talaffuzda tovush orttiramiz: *soat* – [sohat(farg’ona)], *sog’at(Tosh)*, *said* – [sayid].

4. *O'* unlisи *ko'l*, *cho'l*, *jo'ra*, *o's*, *mo'tabar* со'зларида тарроқ талавфуз qилинади. *Bo'ri*, *qo'ri*, *xo'roz*, *ro'mol* со'зларда esa кенгроқ талавфуз етилади.
5. *E* ҳарфи *kecha*, *ne'mat*, *ekran*, *ne'mat* каби со'zlarda то'лиқ талавфуз qилинади. *Okean*, *telefon*, *teatr*, *material* со'зларда esa *i* ga монанд талавфуз qилинади.
6. *b,d,z* undoshлари талавфузда *p*, *t*, *s* айтилса ham, yozuvda *b*, *d*, *z* yoziladi. Aytipti *emas*, aytibdi, *istirob emas*, iztirob...
7. *N* undoshi *m*, *b* undoshidan oldin kelganda *m* айтилади, lekin yozilmaydi.
Shanba – [shamba], aylanma – [aylamma]...

QILICHEV JAHONGIR

Qaydlar uchun:

QILICHEV JAHONGIR

QILICHEV JAHONGIR